

## Olimpiadaning 2-bosqichi boshlandi

13 may kuni institutimizda “Qishloq xo’jaligi gidrotexnika melioratsiyasi” fanidan Respublika olimpiadasi 2-bosqichining tantanali ochilishi o’tkazildi. Respublika olimpiadasi yuqori saviyada tashkil etilib, unda 6 ta oliy ta’lim muassasalari talabalari va ularning ilmiy rahbarlari ishtirok etdilar. Tadbirni institutimizning Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor T.Sultanov tantanali ravishda ochib berdi.

Olimpiadaning 2-bosqichi Nizomda belgilangan tartib asosida tashkil etilib, hakamlar hay'ati, adolat komissiyasi va mandat komissiyalari tarkibi aniqlanib tasdiqlandi. Kunning ikkinchi yarmidan olimpiadaning 1 va 2 turlari (Yozma ish va Ijodiy ish) o’tkazildi. Olimpiada ishtirokchilarini dam olishlarini maroqli tashkil etish maqsadida “Muqimiy” nomidagi O’zbek davlat musiqali drama teatriga olib borildi. Tashrif davomida olimpiada ishtirokchilari “Tohir va Zuhra” spektaklini tomosha qilishdi va maroqli hordiq chiqarishdi. Olimpiadaning qolgan 3 va 4 turlari ertaga bo’lib o’tadi.



**“Irrigatsiya va melioratsiya” kafedrasi assistenti D.G.Yulchiev axboroti**

**Institut matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov**